

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yiliginini keng nishonlash to‘g‘risida” 2026-yil 5-fevraldagi PQ-46-son qarori ijrosi doirasida o‘tkazilgan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar bo‘yicha**

**Ma‘lumotnoma**

Vazirlik va uning tizimida buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yiliginini keng nishonlash doirasida ma‘daniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazildi.



Vazirlik tizimidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yiligi munosabati bilan ma‘rifiy uchrashuv tashkil etildi. “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasida tomonidan o‘tkazilgan tadbirda tarixchi olimlar hamda talaba yoshlar ishtirok etdi.



Anjumanda tarix fanlari doktori, professor Shodmon Hayitov va boshqalar Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi oʻrni hamda ahamiyati toʻgʻrisida maʼruza qilib, tarixchi olimlarning dolzarb fikrlari barchada chuqur taassurot qoldirdi.



Uchrashuv davomida Turon Fanlar akademiyasi hamda Amir Temur Jamoat fondi xalqaro tashkilotlari tomonidan bir guruh olimlarimiz taqdirlandi. Shuningdek, faol talaba yoshlarning mahorat bilan ijro etgan sahna ko‘rinishlari ishtirokchilar olqishiga sazovor bo‘ldi.



Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan “Navoiyuran” davlat korxonasining yoshlar yetakchilari va iqtidorli yoshlari uchun o‘quv-amaliy seminar tashkillashtirildi. Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan “Navoiyuran” davlat korxonasining yoshlar yetakchilari va iqtidorli yoshlari uchun o‘quv-amaliy seminar tashkillashtirildi.







Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar jarayonida ishtirokchilar nafaqat yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar, balki o'zaro tajriba almashish, jamoaviy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish borasida ham muhim tajriba orttirdilar.



“Olmaliq KMK” AJ ishchi-xodimlari orasida Amir Temur va Temuriylar davlati boy merosini keng targ‘ib etish, Temuriylar tarixini chuqurroq o‘rganish maqsadida “Temuriylar tarixi bilimdoni” nomli onlayn viktorina o‘tkazildi. Viktorina shartlari: 5 kun davom etdi. Har kuni 5 ta savol o‘ynaldi. Har bir savol uchun: 2 daqiqa — o‘ylash uchun, 1 daqiqa — javob yo‘llash uchun berildi. G‘oliblar qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san‘at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini nishonlash arafasida Navoiy shahridagi “So‘g‘diyona” jismoniy tarbiya va sport saroyida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi korxonada va tashkilotlar xodimlari hamda yoshlari o‘rtasida “Zakovat” intellektual musobaqasi bo‘lib o‘tdi.



Mazkur musobaqada turli tashkilotlardan jamoalar ishtirok etib, bilim va tafakkur bellashuvida o‘zaro raqobatlashdilar

Vazirlik tizimida Amir Temur va Temuriylar davrining boy tarixiy merosini keng targ‘ib etish, xodimlar hamda yoshlar ongida milliy g‘urur, liderlik, intizom va mas’uliyat tuyg‘ularini mustahkamlash maqsadida yangi loyiha yo‘lga qo‘yildi.



**“Sohibqiron” onlayn viktorinasida** qatnashib, qimmatbaho sovg‘alar yutib olish imkoni yaratildi.

Viktorina 9-aprel – Sohibqiron Amir Temur bobomiz tavvallud kuni munosabati bilan o‘tkazilmoqda.

Viktorinada tyutorlar, talabalar, o‘quvchilar, ustozlar, qisqasi barcha qatnashishi mumkin. Shartlari:

**G‘oliblar quyidagicha taqdirlanadi:**

GranPri (3 nafar) – Y58 Ultra 3 box;

1-o‘rin (3 nafar) – Aqli ko‘zoynak;


2-o‘rin (3 nafar) – Led stol lampasi;

3-o‘rin (3 nafar) – Airpods Pro 2.

G‘oliblar test va referal bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Loyinada jami 24 kishi sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

Viktorinada faol qatnashganlar QR kodli sertifikatga ega bo‘ladi.



Shuningdek, 9-aprel kuni soat 9:00 da Konchilik fakultetida “Amir Temur va temuriylar merosi” hamda “Temuriylar davri – Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri” mavzularida insholar tanlovi o‘tkaziladi.

Mazkur tanlovda barcha fakultetlar talabalari ishtirok etishlari mumkin. Tanlov yakuniga ko‘ra 3 nafar eng yaxshi ishtirokchi g‘olib deb topilib, taqdirlanadi. Tanlov g‘oliblarini aniqlashda insholarning mazmuni, mavzuga mosligi, ijodkorlik darajasi hamda savodxonligi asosiy mezon sifatida baholanadi. Barcha talabalar ushbu tanlovda faol ishtirok etishlariga chorlandi.






Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilliginini keng nishonlash doirasida sohadagi yoshlari tomonidan "Temur tuzuklari" asari asosida video chellenj tashkil etilmoqda.







Geologiya fanlari universiteti talabalari uchun Amir Temur va Temuriylar davrining boy tarixiy merosini o'rganish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy ekskursiya tashkil etildi.

Tadbir doirasida talabalar Islom sivilizatsiyasi markazi va Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyiga tashrif buyurib, boy ilmiy va madaniy meros, noyob qo'lyozmalar hamda tarixiy manbalar bilan tanishdilar.







Shuningdek, ular mustabid tuzum davrida jabrlangan vatandoshlarimiz taqdiri haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Mazkur ekskursiya talabalarning dunyoqarashini kengaytirish va tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Bunday tadbirlar talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, tarixga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Geologiya fanlari universitetida yoshlarning ma'naviy va intellektual rivojiga qaratilgan bunday tashabbuslar izchil davom ettirilmoqda.



“O‘zbekko‘mir” AJ tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-sonli “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida korxonada “kitob burchaklari” tashkil etilmoqda.



Mazkur tashabbus xodimlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish hamda mutolaa orqali bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi 50-son bayoni ilovasining 2.3-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan tayyorlangan targ‘ibot materiallari “Ma‘naviyat soatlari” hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarida foydalanilmoqda.

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan taqdim etilayotgan barcha taqdimot materiallarini, tizimda amalga oshirilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni vazirlikning rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalarida va elektron ommaviy axborot vositalarida yoritish ishlari davom etmoqda.

**Vazirning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi**

**Z. Axmedova**